



## O'ZBEKISTONDA INNOVATSION LOYIHALARNI VENCHURLI MOLIALASHTIRISH IMKONIYATLARI

Vahobov Javohir Sobir o'g'li

Bank-moliya akademiyasi magistranti  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17044068>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Avgust 2025 yil  
Ma'qullandi: 28- Avgust 2025 yil  
Nashr qilindi: 31- Avgust 2025 yil

### KEYWORDS

*Venchur kapitali, innovatsion loyihalar, startaplar, moliyalashtirish, kichik va o'rta biznes (KOB), investorlar, davlat va xususiy sektor hamkorligi, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, innovatsion rivojlanish agentligi, xalqaro moliya tashkilotlari*

### ABSTRACT

*Maqolada O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va innovatsion loyihalarning moliyalashtirilishida venchur kapitalining roli tahlil qilinadi. Startaplar va innovatsion tashabbuslarni moliyalashtirishdagi muammolar, jumladan, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, investorlarning sust faolligi va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kamligi ko'rib chiqilgan. Global tajriba asosida venchur kapitali kichik va o'rta biznesni rivojlantirish hamda yangi texnologiyalarni joriy etishda samarali vosita ekanligi ta'kidlangan. O'zbekiston sharoitida davlat va xususiy sektorning hamkorligi, qonunchilik asoslari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik orqali venchur moliyalashtirish tizimini rivojlantirish istiqbollari ko'rsatildi. Maqolada innovatsion loyihalarning muvaffaqiyati uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlashning turli bosqichlari va shakllari, shuningdek, mamlakatda mavjud muammolar hamda ularni hal qilish yo'llari yoritilgan.*

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, avvalo, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarning amaliyotga joriy etilishiga bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, yoshlar tomonidan ilgari surilayotgan innovatsion loyihalar va start uplar iqtisodiy o'sishning yangi harakatlantiruvchi kuchi sifatida maydonga chiqmoqda. Biroq hozirgi sharoitda bu loyihalarning ko'plab muammolarga duch kelayotgani kuzatilmoqda. Ular orasida moliyaviy resurslarning yetishmasligi, risk darajasi yuqori bo'lgan innovatsion loyihalarga investorlarning sust munosabati va tizimli qo'llab-quvvatlov mexanizmlarining mavjud emasligi asosiy o'rin tutadi.

Global miqyosda esa venchur kapitali yangi mahsulot va texnologiyalarni xalqaro bozorga olib chiqishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Shu jihatdan, ushbu modelning O'zbekistonda ham qo'llanishi, ayniqsa, yoshlarning innovatsion salohiyatini ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda innovatsion loyihalarga faol venchurli investitsiyalar kiritilishi muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes (KOB) subyektlari o'zining

yuqori moslashuvchanligi, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni tez qabul qilishi bilan iqtisodiy o'sish va ish bilan bandlikning asosiy drayverlariga aylanmoqda. Xalqaro moliya fondi (IMF) hisobotlariga ko'ra, dunyoda KOB 90 foiz korxonalarini tashkil etadi va global ishchi kuchining 63 foizini ish bilan ta'minlaydi. Yevropa Ittifoqida esa KOBning umumiy korxonalar tarkibidagi ulushi 99,8 foiz, ish bilan bandlikdagi ulushi 85 foiz hamda qo'shilgan qiymatdagi hissasi 58 foizga teng (IMF, 2015). O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va innovatsiyalarni rag'batlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan strategik chora-tadbirlar natijasida, 2023 yil yakunlariga ko'ra, innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi kichik biznes va startaplarning soni sezilarli o'sdi. Xususan, KOBning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 62,1 foizni tashkil qilayotgan bir paytda, innovatsion sohada faoliyat yurituvchi korxonalar investitsiyalarning 15-20 foizini jalb qilmoqda.

O'zbekiston hukumati tomonidan innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2022 yilda "Innovatsion rivojlanish agentligi" tashkil etilib, venchur fondlari bilan hamkorlikni rivojlantirish, startaplarni moliyalashtirish, grant va kredit mexanizmlarini yaratish yo'lga qo'yildi. 2023 yilda agentlik tomonidan moliyalashtirilgan innovatsion loyihalar soni 150 taga yetib, ularning umumiy qiymati 250 mlrd so'mdan oshdi. Shu bilan birga, xorijiy venchur kapital fondlari bilan hamkorlikni kengaytirish uchun imkoniyatlar yaratilmoqda.

Xalqaro moliya institutlari va investorlar, jumladan, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, va Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) O'zbekistonda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda hamkorlik qiladi. Masalan, IFC tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan startaplar uchun ajratilgan venchur fondlar hajmi 2023 yilda 50 million AQSh dollariga yetdi. Shu bois, O'zbekistonda innovatsion loyihalarni venchurli moliyalashtirishni yanada rivojlantirish uchun yo'nalishlarda ishlash zarur.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Innovatsion g'oyalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish va yangi texnologiyalarni joriy etish uchun muhim omildir. Adabiyotlarni o'rganish orqali mavjud muammolar va ularni hal qilish yo'llari haqida xulosalar chiqariladi.

G.S. Gamidov, V.G. Kolosov va N.O. Osmanovlar o'z tadqiqotlarida mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida yangi texnologiyalar va innovatsiyalarning o'rni va ahamiyatini batafsil tahlil qilganlar. Ularning fikricha, innovatsiyalar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Xorijiy tadqiqotchilar P. Gompers va J. Lerner esa venchur kapitalining moliyaviy bozorlar ichidagi o'rni, shuningdek, innovatsion jarayonlarning har bir bosqichida yuzaga keladigan murakkabliklarni bartaraf etish yo'llarini o'rganishgan. Ular venchur kapitalistlar tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion moliyalashtirish mexanizmlari va strategiyalarining samaradorligini keng ko'lamda tahlil qilib, bu sohaning iqtisodiyotdagi ahamiyatini ta'kidlaganlar.

Avstriyalik iqtisodchi Y. Shumpeter "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" nomli asarida iqtisodiy o'sish va rivojlanishda fan va texnika taraqqiyotining hal qiluvchi ahamiyatini ko'rsatib, innovatsiyalarni iqtisodiyot taraqqiyotining asosiy drayveri sifatida ta'riflagan.

Uning nazariyasi zamonaviy iqtisodiyotda innovatsion faoliyatning o'rnini va innovatsiyalar orqali iqtisodiy o'zgarishlarning mexanizmlarini tushuntirishda muhim manba hisoblanadi.

Innovatsion loyihalarni ventchur fondlari orqali samarali moliyalashtirish uchun xalqaro tajriba va nazariy asoslarni chuqur o'rganish muhimdir. So'nggi yillarda bu yo'nalishda bir qator taniqli iqtisodchilar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Pol Gompers va Josh Lerner (2004) ventchur kapital bozorining hayotiy bosqichlarini tahlil qilgan bo'lsa, Uilyam Baumol (2002) innovatsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini ko'rsatgan. Karl Shramm (2006) esa tadbirkorlik va ventchur moliyalashtirish asosida rivojlanish modellarini o'rgangan.

O'zbek olimi Sh.A. Atamuradov esa o'z tadqiqot ishida innovatsion tadbirkorlikni ventchur fondlari orqali moliyalashtirishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan muammolarni ko'rib chiqqan. Uning tadqiqoti ventchur moliyalashtirishni yanada samarali qilish yo'llarini aniqlashga xizmat qiladi.

Rivojlangan davlatlarda innovatsion loyihalarga ajratiladigan moliyaviy resurslar davlat va xususiy sektor tomonidan teng darajada taqsimlanadi. Masalan, G'arbiy Yevropaning ko'plab mamlakatlarida davlat va xususiy kapital orasidagi moliyaviy resurslar ulushi deyarli bir xil bo'lishi uchun harakat qilinadi. Bu holat, o'z navbatida, ilmiy-tadqiqotlar, patentlar, litsenziyalar va boshqa innovatsion faoliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalarning o'sishiga olib keladi. Sanoat jihatdan rivojlangan davlatlarda ilmiy-tadqiqot ishlari uchun sarflangan mablag'lar yalpi ichki mahsulotning taxminan 3 foizini tashkil etadi. Innovatsion loyihaning asosiy vazifalaridan biri korxonaning yuqori sifatli va zarur miqdorda mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini raqobatchilarga namoyish qilishdir.

Innovatsion loyiha tushunchasi quyidagi nuqtai nazarlardan ko'rib chiqilishi mumkin:

• Innovatsion maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlar to'plami sifatida;

• Innovatsion faoliyatni amalga oshirish jarayoni sifatida;

• Ushbu jarayonlarni asoslab beruvchi hujjatlar to'plami sifatida.


Bu uchta jihat innovatsion loyihaning tashkil etilishi va boshqarilishi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, innovatsion loyiha — bu o'zaro bog'liq, maqsadga yo'naltirilgan va ilm-fan hamda texnologiya rivojining ustuvor yo'nalishlarida erishilishi lozim bo'lgan murakkab jarayonlar tizimidir.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Ventchurli moliyalashtirish — bu yuqori darajadagi tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lgan, biroq katta innovatsion salohiyatga ega bo'lgan startap loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimidir. U investorlar tomonidan ilg'or g'oya va texnologiyalarga ega bo'lgan kichik korxonalar yoki loyihalarga kapital kiritish orqali amalga oshiriladi. Mazkur moliyalashtirish shakli nafaqat mablag' taqdim etadi, balki bilim, tajriba va tarmoq imkoniyatlarini ham taqdim etadi. Ventchur kapitalining asosiy turlari quyidagilar hisoblanadi:

• **Boshlang'ich bosqich (seed capital)** — startap g'oyasini sinovdan o'tkazish va dastlabki prototipni yaratish uchun ajratiladigan mablag'lar;

• **Erta bosqich investitsiyalari (early-stage financing)** — mahsulotni ishlab chiqish, bozorga chiqish va dastlabki mijozlarni jalb qilish uchun yo'naltiriladi;

• **Kengayish bosqichi investitsiyalari (expansion financing)** — muvaffaqiyatli ishlayotgan startapni kengaytirish, yangi bozorlarga chiqish va ishlab chiqarishni oshirishga qaratilgan mablag'lar.



### 1-rasm. Venchur kapitalining turlari<sup>1</sup>


Venchur kapitalining muhim manbalaridan biri sifatida davlat mablag'larini ko'rsatish mumkin, ular milliy venchur moliyalashtirish tizimini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Ko'plab iqtisodchilar davlat tomonidan kafolatli fondlarni tashkil etish zarurligini ta'kidlaydilar, bu esa venchur kapital fondlari faoliyatidagi umumiy xavflarni kamaytiradi va natijada investorlarning innovatsion loyihalarning dastlabki bosqichlariga sarmoya kiritishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shu tarzda, kafolatli fondlar venchur investorlar uchun "xavfsizlik yostiqlikchasi" vazifasini bajaradi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda davlat tomonidan venchur biznesini rag'batlantirish uchun yetarlicha mablag' ajratilmoqda. Shu bilan birga, venchur investitsiyalari muvaffaqiyatli bo'lishi uchun faqat davlat emas, balki xususiy investitsiyalarni ham jalb qilish zarur. Davlat xususiy sektor uchun qulay infratuzilma yaratish, qonunchilikni takomillashtirish kabi chora-tadbirlar orqali o'z rolini kengaytirishi lozim.

Shuningdek, venchur kapitali uchun an'anaviy moliyalashtirish manbalaridan biri sifatida kredit muassasalari, ayniqsa banklar ham alohida e'tibor talab qiladi. Tarixan banklar ko'plab mamlakatlarda sanoat va innovatsiyalar rivojiga katta hissa qo'shgan, xususan rivojlanishning so'nggi bosqichlarida. Hozirda bank kreditlari venchur kapitalistlar uchun ichki daromad ko'rsatkichlari bilan solishtirganda jozibador ko'rinadi. Biroq, banklarning moliyalashtirish usullari sug'urta talablari, yillik to'lovlar kabi qo'shimcha xarajatlarni o'z ichiga olgan "yashirin narx"ga ega bo'lib, pul oqimi sikli nuqtai nazaridan noqulayliklar tug'diradi.

O'zbekistonda esa tijorat banklarining venchur faoliyatiga munosabati ehtiyotkorona va cheklangan bo'lib, bunga quyidagi asosiy omillar sabab bo'ladi:

<sup>1</sup> <https://venturesinsider.com/types-of-venture-capital-funding/>



**2-rasm. Tijorat banklarining venchur faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillar**


• Kredit xatarlarining yuqoriligi. Banklar tijorat tashkiloti sifatida mijozlarning omonatlari va daromadlari uchun javobgar bo’lib, kreditlash jarayonida minimal moliyaviy xavflarni nazarda tutishadi. Venchur loyihalarining noaniq natijalari banklarni jalb qilishni qiyinlashtiradi.

• Banklarning resurs bazasining cheklanganligi. Omonatlarning kamligi uzoq muddatli kredit berish imkoniyatlarini kamaytiradi.

• Banklarning boshqa kam xavfli va barqaror daromad manbalariga (valyuta operatsiyalari, hisob-kitoblar, qimmatli qog’ozlar bozori) ustunlik berishi.

O’zbekistonda venchur kapital bozori endigina shakllanayotgan bo’lsa-da, davlat tomonidan yaratilayotgan innovatsion infratuzilma (texnoparklar, inkubatorlar, akseleratorlar), qonunchilikdagi yengilliklar va biznesni yuritishdagi erkinliklar bu sohaning rivojlanishiga mustahkam asos bo’lmoqda.

Venchurli moliyalashtirish innovatsion rivojlanishning ajralmas tarkibiy qismidir. U yuqori darajadagi risklar mavjud bo’lgan innovatsion g’oyalarni amalga oshirish imkonini berib, yangi texnologiyalar va xizmatlar paydo bo’lishiga zamin yaratadi. Natijada esa, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi oshadi, yangi ish o’rinlari yaratiladi va bilimga asoslangan jamiyat shakllanadi. AQShda faoliyat yuritayotgan venchur fondlar, odatda, quyidagi bosqichlar asosida moliyalashtirish jarayonini amalga oshiradi:



### 3-rasm. AQShda venchur fondlarni moliyalashtirish bosqichlari<sup>2</sup>

Mamlakatda venchur investitsiyalarni jalb qilishga qulay qonunchilik asoslari yaratilgan. Davlat tomonidan startaplar uchun turli grantlar, soliq yengilliklari va boshqa rag'batlantiruvchi choralar taklif etiladi. Shuningdek, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish tizimi va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi huquqiy baza ushbu yo'nalishning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

2024-yil yakunlariga ko'ra, AQShda venchur investitsiyalar hajmi 209 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. Bu 2023-yilga nisbatan o'sishni anglatadi, biroq 2021-yildagi tarixiy maksimal ko'rsatkich — 344,7 milliard dollardan pastroqdir. Mazkur pasayish asosan global iqtisodiy noaniqliklar va investorlarning ehtiyotkor yondashuvi bilan bog'liq.

So'nggi yillarda AQShdagi venchur bozori o'zgaruvchan omillar ta'sirida dinamik rivojlanmoqda. Xususan, sun'iy intellekt, biotexnologiya va boshqa ilg'or sohalarga bo'lgan talabning ortishi sarmoyadorlarni aynan shu yo'nalishlarga faol jalb qilmoqda. 2024-yilda AQShda 15 260 ta venchur investitsiya bitimi amalga oshirilgan bo'lib, bu ham 2023-yilga nisbatan ijobiy dinamikani ko'rsatadi, biroq 2021-yildagi keskin o'sish darajasidan pastligicha qolmoqda.

Rossiya tajribasiga nazar tashlasak, bu mamlakatda venchur fondlar kapitalining 24% mahalliy manbalar hisobiga shakllangan, va bu ko'rsatkich 1994 yilda bor-yo'g'i 3% ni tashkil etgan. O'zbekistonda esa mahalliy manbalar hisobiga venchur moliyalashtirish ulushi juda past, chunki hozirgi vaqtda venchur fondlar to'liq faoliyat yuritmayapti. Biroq, so'nggi yillarda innovatsiya va texnologik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat va xususiy sektor hamkorligidagi investitsiya mexanizmlari shakllanmoqda.

O'zbekistonda venchur fondlarga sarmoya yo'naltirishi mumkin bo'lgan asosiy manbalar quyidagilar<sup>3</sup>:

✚ Davlat agentliklari – Innovatsion rivojlanish agentligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Texnologik rivojlanish jamg'armasi kabi tuzilmalar orqali.

✚ Xalqaro moliyaviy tashkilotlar – Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) hamda BMTning turli fondlari orqali grantlar va kreditlar ajratiladi.

✚ Korporativ sektor – Katta sanoat korxonalari va biznes guruhlar tadbirkorlik ekotizimiga investitsiya kiritish imkoniyatiga ega. Masalan, IT-park rezidentlari, Bank24 va boshqa fintech kompaniyalar o'z startap loyihalarini moliyalashtirishda faol ishtirok etmoqda.

✚ Xususiy investorlar (biznes angel) – O'zbekistonda hali venchur investitsiyalar keng tarqalmagan bo'lsa-da, biznes angel va xususiy sarmoyadorlarning ushbu bozorga qiziqishi ortib bormoqda.

Odatda, bir nechta investorlar tomonidan mablag'lar bir fondga birlashtiriladi va bu mablag'lar bir nechta loyihalarga taqsimlanadi, bunda diversifikatsiya tamoyiliga amal qilinadi. Bu yondashuv, yuqorida aytilganidek, fond faoliyatiga bog'liq bo'lgan umumiy xavf darajasini kamaytirishga xizmat qiladi.

Innovatsion loyihani yo'lga qo'yishga jur'at qilgan tadbirkorlar ko'pincha moliyaviy resurs yetishmovchiligi muammosiga duch keladi. Asosiy moliyalashtirish manbasi bo'lmish

<sup>2</sup> <https://www.allied.vc/guides/vc-milestones-by-funding-stage>

<sup>3</sup> <https://uzvc.uz/>

bank kreditlari ham, yuqori xavf darajasi va loyihaning istiqboliga nisbatan ishonchsizlik sababli rad etiladi. O'tgan 4-5 yillik amaliyot shuni ko'rsatdiki, ko'plab yosh tadbirkorlar tomonidan ilgari surilgan innovatsion tashabbuslar qisqa muddatda – odatda 2-3 yil ichida barbod bo'lmoqda.

Shu asosda, quyidagi amaliy takliflarni ilgari suramiz:

- ✚ Innovatsion startaplarni qo'llab-quvvatlovchi markazlar tashkil etish
- ✚ Inkubatsion davr joriy etish
- ✚ Mintaqaviy tadbirkorlik maktablarini yo'lga qo'yish

**Xulosa.** O'zbekistonda innovatsion loyihalarni venchurli moliyalashtirish imkoniyatlari mavjud bo'lsa-da, amaliyotda bu jarayon bir qator muammolar bilan bog'liq bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Venchur fondlarini tashkil etish va ularning faoliyatini yo'lga qo'yish sohasida qonunchilikning hali to'liq shakllanmaganligi, mavjud huquqiy mexanizmlarning xalqaro tajribalarga to'liq mos kelmasligi;
2. Uzoq muddatli innovatsion loyihalarni amalga oshirishning amaliy jihatdan murakkabligi va yuqori xavf darajasi;
3. Moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi, xususan, pensiya jamg'armalari va sug'urta kompaniyalari mablag'larini jalb etish imkoniyatining mavjud emasligi;
4. Fond bozorining yetarlicha rivojlanmaganligi, bu esa kapital harakatini cheklab qo'yadi;

Investitsiya kompaniyasi o'zining asosiy faoliyati bo'yicha innovatsion loyihalarni venchurli moliyalashtirish yo'nalishida venchur fond tashkil etadi va shu orqali boshqaruv kompaniyasi sifatida faoliyat yurita boshlaydi. Ushbu kompaniya venchur fondini boshqarish uchun uning ustav kapitalini shakllantiradi va mavjud moliyaviy resurslarni faqat yuqori xavfli, ammo katta innovatsion salohiyatga ega loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltiradi. Bunda venchur fondning muassislari sifatida yuridik va jismoniy shaxslar, jumladan, ushbu fondni tashkil etish bo'yicha ta'sis shartnomasini imzolagan xorijiy investorlar ham ishtirok etishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi.

O'zbekistonda innovatsion g'oyalar va loyihalarni moliyalashtirish samaradorligini oshirish uchun venchurli moliyalashtirish ulushli (paychilik) asosda tashkil etish, loyiha muvaffaqiyatli yakunlangach, ishtirokchilar ulushini strategik investorlarga sotish orqali chiqish mexanizmini ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv innovatsion faoliyatni moliyalashtirishni rag'batlantiradi, investorlar uchun aniq va nisbatan xavfsiz chiqish strategiyasini yaratadi hamda mamlakatda yuqori texnologiyali va innovatsion iqtisodiyotning shakllanishiga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gamidov G.S., Kolosov V.G., Osmanov N.O. Osnovy innovatiki i innovatsionnoy deyatelnosti. - SPb.: Politekhnik, 2000. - B. 15.
2. Gompers, Paul, and Josh Lerner. 2001. "The Venture Capital Revolution." Journal of Economic Perspectives, 15 (2): 145-168. DOI: 10.1257/jep.15.2.145
3. Ammosov Yu.P. Venchurniy kapitalizm: ot istokov do sovremennosti. SPb.: RAVI, 2004. – 372 s.

4. Shumpeter Y.A. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. Kapitalizm, sotsializm i demokratiya. - M.: Eksmo, 2007. - B. 132.
5. Sh.A. Atamuradov. Innovatsion tadbirkorlik faoliyatini venchur fondlari orqali moliyalashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. // Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. 08.00.07 - Moliya, pul muammosi va kredit. - T.: "IMPRESS MEDIA" MChJ, 2021. B. 22.
6. <https://lex.uz>
7. <https://www.allied.vc/guides/vc-milestones-by-funding-stage>
8. <https://uzvc.uz/>

